



### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-noyabr 2025 yil  
Ma'qullandi: 20- noyabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 24- noyabr 2025 yil

### KEY WORDS

*Elektron davlat xaridlari; raqamli boshqaruv; shaffoflik; korrupsiyaning oldini olish; davlat sektorida samaradorlik; elektron platformalar; avtomatlashtirilgan xarid tizimi; tender jarayonlari; davlat byudjeti; ochiq ma'lumotlar; manfaatlar to'qnashuvi; onlayn monitoring; elektron auksionlar; normativ-huquqiy baza; raqamli iqtisodiyot.*

## ELEKTRON DAVLAT HARIDLARINI DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O`RNI

**Xaydarov Diyorbek Shuxrat o`g`li**

Toshkent davlat yuridik universiteti, davlat

boshqaruvi yo`nalishi 2-kurs talabasi

hhaydarovdiyorbek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17697104>

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada elektron davlat xaridlari tizimining mazmuni, uning shakllanish jarayoni va zamonaviy davlat boshqaruvidagi o`rni haqida umumiy ma'lumot beriladi. Bugungi kunda davlat xaridlarini raqamlashtirish jarayoni ko'plab mamlakatlarda boshqaruv samaradorligini oshirish, byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning muhim vositasiga aylangan. Elektron davlat xaridlari an'anaviy qog'oz shaklidagi jarayonlarni soddalashtirib, barcha ishtirokchilarga teng imkoniyat yaratadi, korrupsiya xavfini kamaytiradi va tender jarayonlarida adolatli raqobatni kuchaytiradi. Maqolada elektron xaridlarning shakllanish tarixi, elektron platformalarning asosiy funksiyalari hamda davlat boshqaruvi uchun keltiradigan afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, turli davlatlarning tajribasi qisqacha ko'rib chiqilib, xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan yondashuvlar haqida umumiy tahlil beriladi. Tadqiqot elektron xaridlarning huquqiy asoslari, texnologik tamoyillari, jarayon ishtirokchilari va boshqaruvga ta'siri bo'yicha to'plangan ochiq ma'lumotlarga asoslanadi. Natijada, elektron davlat xaridlari tizimi samaradorlikni oshirish, xarajatlarni qisqartirish, davlat xizmatlari sifatini yaxshilash va boshqaruv mexanizmlarini raqamlashtirishdagi muhim vosita sifatida baholanadi. Maqola elektron xaridlarning bugungi kundagi ahamiyatini yoritish bilan birga, tizimni yanada takomillashtirish zarurligi haqida umumiy xulosalar beradi.*

So'nggi yillarda ko'pgina davlatlar o'z boshqaruvi tizimida raqamlashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi asnosida davlat xaridlarini tashkil etish va nazorat qilish modelini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa elektronlashtirilgan davlat xaridlari davlat boshqaruvida yanda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avvalo, biz davlat xaridlari o'z ichiga

nimalarni olishi hamda uning boshqa xarid ko'rinishlari xususan, xususiy sektor xaridlaridan ajratib olishimiz kerak. **Davlat xaridlari deganda davlat idoralari yoki mahalliy hokimiyat organlari kabi davlat organlarining kompaniyalardan ish, tovarlar yoki xizmatlar sotib olish jarayoni tushuniladi.**<sup>1</sup> Bu jarayon shaffoflik, raqobat va pul qiymatini ta'minlashga qaratilgan qat'iy qoidalarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Lekin, an'anaviy qog'oz shaklidagi, ko'p bosqichli va inson omiliga yuqori darajada bog'liq bo'lgan davlat xaridlari jarayoni ko'plab muammolarni keltirib chiqarganligi, xususan shaffoflikning pastligi, manfaatlar to'qnashuvi ehtimoli, korrupsion xavflarning mavjudligi, tender jarayonlarining sustligi va byudjet mablag'laridan samarasiz foydalanish holatlari raqamli texnologiyalarning ushbu sohada joriy etilishiga sabab bo'ldi. Bu esa ushbu muammolarning katta qismini bartaraf etishda asosiy vositaga aylandi. Shu sababli davlat xaridlari elektronlashtirildi va bu tizimi bugungi kunda nafaqat texnologik yangilik, balki davlat boshqaruvida samaradorlik va ishonchlilikni ta'minlovchi strategik mexanizm sifatida qaralmoqda.

Elektron davlat xaridlari, avvalo, davlat organlari tomonidan tovarlar, xizmatlar va ishlarni xarid qilish jarayonini elektron platformalar orqali amalga oshirishga asoslanadi.<sup>2</sup> Bunday platformalar orqali jarayonning har bir bosqichi – e'lon berish, hujjatlarni yuklash, ishtirokchilarni ro'yxatdan o'tkazish, takliflarni baholash, g'olibni aniqlash va shartnoma tuzish – avtomatlashtirilgan tartibda, inson omilining minimal aralashuvi bilan bajariladi. Bu esa shaffoflikni oshiradi, jarayonni tezlashtiradi va manfaatdor tomonlar uchun teng imkoniyat yaratadi. Ochiq ma'lumotlar portallarining integratsiyasi esa budjet mablag'laridan foydalanish jarayonida jamoatchilik nazoratini kuchaytirdi.

Elektron davlat xaridlarining dolzarbligi, birinchi navbatda, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish zarurati bilan izohlasak bo'ladi. Shuningdek, bugungi kunda davlat sektori iqtisodiyotning eng yirik xaridorlaridan biri bo'lgani sababli, xaridlar tizimidagi har qanday kamchilik milliy iqtisodiyotga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois elektron davlat xaridlari ko'pchilik davlatlar siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Uning joriy etilishi orqali nafaqat xaridlar jarayoni optimallashtirilmoqda, balki korrupsiyaga qarshi kurashning muhim institutsional mexanizmi shakllantirilmoqda.

Shuningdek, elektron xaridlar davlat boshqaruvida mas'uliyatni oshiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Chunki barcha harakatlar raqamli iz qoldiradi, bu esa tekshiruvlar, audit jarayonlari va jamoatchilik monitoringi uchun qulaylik yaratadi. Natijada davlat organlarining ochiqligi va hisobdorligi mustahkamlanadi. Xalqaro tajribada ham elektron xarid tizimlari davlat sektorida islohotlarning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy indikatorlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur maqola elektron davlat xaridlarining davlat boshqaruvidagi o'rnini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqot davomida elektron xarid tizimining huquqiy, institutsional va texnologik asoslari o'rganilib, uning samaradorlikka ta'siri, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi elektron davlat xaridlarining davlat boshqaruvidagi rolini aniqlash va uning samaradorligini baholashdir. Tadqiqotning metodologiyasi bir nechta yondashuvlarni o'z ichiga oladi: normativ-huquqiy tahlil, kontent tahlili, solishtirma tahlil va

<sup>1</sup> [https://single-market-economy.ec.europa.eu/single-market/public-procurement\\_en](https://single-market-economy.ec.europa.eu/single-market/public-procurement_en)

<sup>2</sup> <https://www.cips.org/intelligence-hub/procurement/e-procurement>

statistik ma'lumotlarga asoslangan baholash. Ushbu metodlar bir-birini to'ldiruvchi vosita sifatida ishlatiladi, bu esa tadqiqotning ilmiy aniqligi va natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi.

### Adabiyotlar tahlili va metod

Davlat boshqaruvida elektronlashgan davlat xaridlarini tadbqiq qilish uchun albatta uning huquqiy asoslari mavjud bo'lishi lozim. Ko'pgina mamlakatlarda elekton davlat haridlari tizimi joriy etilishi asnosida bir qancha qonunchilik hujjarlari ishlab chiqiladi. Xususan, O'zbekistonda elektron davlat xaridlarini tartibga solish uchun quidagi qonunchilik hujjatlari mavjud bo'lib, ular davlat xaridlarini huquqiy jihatdan tartibga solgan hamda bugungi kunda tartibga solmoqda.

Bu hujjatlar orasida eng muhimi "Davlat xaridlari to'g'risida"<sup>3</sup> gi qonun bo'lib u O'zbekistonda elektron davlat haridlari uchun huquqiy asos hamda yo'naltiruvchi bo'lib xizmat qilmoqda. Rivojlangan davlatlarga qarar ekanmiz Germaniyada davlat xaridlari "[Act transposing Directive 2014/55/EU on electronic invoicing in public procurement](#)"<sup>4</sup> hamda The European Single Procurement Document (ESPD)<sup>5</sup> ga asoslanadi. Ushbu qoninlarda elektron davlat xaridlari tizimining huquqiy bazasi, ularning huquqiy asoslari, shuningdek, davlat organlari va tender ishtirokchilari uchun belgilangan talablar batafsil keltirib o'tilgan. Natijada, tizimning samarali ishlashi uchun mavjud huquqiy imkoniyatlar va cheklovlar doirasi shakllangan.

Elektron davlat xaridlarini kontent tahlil qilar ekanmiz bunda elektron xaridlar platformalarida e'lon qilingan tenderlar, shartnomalar, jamoatchilik nazorati bo'yicha hisobotlar va boshqa ochiq ma'lumotlar asosida amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Misol qilib oladigan bo'lsak O'zbekistonda davlat xaridlar portali <https://xarid.uzex.uz/> da statistik ma'lumotlar, turli xil shartnomalar hamda ularning mazmunini o'rganishimiz mumkin. Ushbu platformada jarayonlar shaffofligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Xususan, tenderlarning boshlanish vaqti aniq belgilangan bu esa o'z navbatida bir qancha ishtirokchiklarga o'z tovarlarini taqdim etish uchun muhimdir. Shuningdek tenderda tuzilgan shartnomalar haqidagi aniq ma'lumotlarning portalda joylashtirilishi xizmat ko'rsatuvchilarga tovarlarini taqdim etishda ushbu ma'lumotlarga tayanish imkonini beradi. Davlat xaridlari esa ham shaffof ham sifatli tarzda amalga oshadi.

Uchinchi yondashuv qiyosiy tahlil usulidir. Ushbu metod orqali O'zbekistonda mvjud bo'lgan elektron davlat xaridlari tizimi rivojlangan mamlakatlar tizmlari bilan solishtirildi. Yevropa Ittifoqi davlatlari va ba'zi Osiyo mamlakatlaridagi elektron xaridlar tizimlarining samaradorligi, shaffoflik mexanizmlari va korrupsiyani kamaytirish yondashuvlari o'rganildi. Qiyosiy tahlil O'zbekiston tajribasini xalqaro standartlar kontekstida baholash imkonini berdi va tizimni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratdi.

Shuningdek, statistik tahlil metodi qo'llanildi. Bu metod orqali xaridlar hajmi, tenderlarning muvaffaqiyat ko'rsatkichi, byudjet mablag'larining taqsimlanishi va platformalardagi foydalanuvchi faolligi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar jadvallar

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-son

<sup>4</sup> <https://ec.europa.eu/digital-building-blocks/sites/pages/viewpage.action?pagelid=894304528#:~:text=Since%2018%20April%202020%2C%20federal,busines%20starting%20January%201%2C%202025.>

<sup>5</sup> <https://www.espd.eu/>

yordamida vizual tarzda ifodalanadi, bu esa maqolada dalillarni aniq va tushunarli ko'rsatishga xizmat qiladi.

Ushbu metodologik yondashuvlar majmui tadqiqotning ishonchliligini oshiradi va elektron davlat xaridlarining davlat boshqaruvidagi rolini kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi. Shu tariqa, normativ-huquqiy tahlil, kontent tahlili, solishtirma tahlil va statistik baholash birgalikda tadqiqotning ilmiy asosini tashkil etadi, natijalar va muhokama bo'limlarining sifatli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

### Muhokama

Elektron davlat xaridlari tizimining joriy etilishi davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni sezilarli darajada oshirdi. Avvalgi tadqiqotlar va xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirilgan xarid jarayoni inson omilini kamaytiradi va manfaatlar to'qnashuvi xavfini pasaytiradi. O'zbekiston tajribasida ham shaffoflikning oshishi tenderlarga oid shikoyatlar sonining kamayishi va ishtirokchilar faolligining ortishi bilan tasdiqlanadi. Bu, o'z navbatida, davlat mablag'laridan samarali foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, elektron xaridlar tizimi byudjet mablag'larini taqsimlash va nazorat qilish mexanizmlarini optimallashtiradi. Bunday tizm joriy qilish natijasini 2017-yilda o'tkazilgan "Open Contracting 2017 global summit" dan ham bilib olishimiz mumkin. Statistikalari shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 14,5 foizini tashkil etadi. Elektron davlat xaridlarini rivojlantirishga sarmoya kiritish barcha hukumatlar uchun ustuvor vazifa bo'lishi lozim. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki davlat organlari faoliyatining tezkorligini ham kuchaytiradi. Ushbu sammitda yana elektron davlat xaridlari tizimlari sarmoyadan juda yuqori daromad keltirishi, ko'pincha narxlarni 5-10% pasaytirishi, investitsiya va operatsion xarajatlarni ko'p marta qoplashi ta'kidlab o'tib ketilgan.<sup>6</sup> Shu bilan birga, elektron tizimlarning integratsiyasi ochiq ma'lumotlar portaliga ulanganligi jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi va auditorlik jarayonlarini osonlashtiradi.

Xalqaro solishtirma tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning elektron xarid tizimi xalqaro standartlarga mos keladi, lekin ayrim texnologik va institutsional jihatlarni takomillashtirish zarur. Buni so'nggi yillarda amalga mamlakatimizda oshirilayotgan ishlar misolida ko'rishimiz mumkin. Xususan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida bu sohani rivojlantirish davlat mablag'larini **talon-toroj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish** bo'yicha jamoatchilik nazoratini to'laqonli joriy qilish alohida maqsad qilib olingan.<sup>7</sup>

Muhokama bo'limida shuningdek, tizimning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri ham inobatga olishimiz lozim. Elektron xaridlar platformalari nafaqat davlat organlarining ochiqligini oshiradi, balki xususiy sektor uchun raqobat muhitini yaratadi. Bu, o'z navbatida, sifatli xizmatlar va mahsulotlar yetkazib berilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, tizimning qulayligi va elektron shakldagi iz qoldirish mexanizmi foydalanuvchilar, jumladan, davlat xodimlari va tender ishtirokchilari uchun mas'uliyatni oshiradi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, elektron davlat xaridlari nafaqat texnologik yangilik, balki davlat boshqaruvida institutsional islohotlarning muhim qismidir. Shu bilan birga, tizimning

<sup>6</sup> <https://www.open-contracting.org/2017/12/07/government-procurement-electronic-open/>

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

samaradorligini oshirish uchun doimiy monitoring, texnologik yangilanish va huquqiy bazani takomillashtirish talab etiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi takliflarni baholash tizimi va real vaqt rejimida monitoring mexanizmlari hali keng joriy etilmagan. Ushbu imkoniyatlar joriy etilsa, tizim samaradorligi yanada oshadi va korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmi kuchayadi.

Shuni ta'kidlash joizki, elektron davlat xaridlari tizimi nafaqat mavjud jarayonlarni optimallashtirishga, balki davlat boshqaruvi sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tizimning samaradorligi va shaffofligi davlat organlarining qaror qabul qilish tezligi, manfaatlar to'qnashuvi ehtimolining kamayishi va iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bevosita bog'liq. Shu tariqa, elektron xaridlar nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa tizimning davlat boshqaruvidagi strategik ahamiyatini yanada oshiradi.

Muhokama bo'limi yakunida shuni qayd etish mumkinki, elektron davlat xaridlari tizimi O'zbekiston sharoitida davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, tizimni takomillashtirish istiqbollari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

### **Natijalar**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatayapdiki elektron davlat xaridlarining davlat boshqaruvidagi eng yangi rivojlanayotgan tarmoq bo'lib, uning davlat boshqaruviga integratsiyasi rivojlangan davlatlarda ham jadal davom etmoqda. Xususan, Yevropa davlatlari uchun yagona "**Public Procurement Data Space (PPDS)**" ya'ni davlat xaridlari bo'yicha elektron ma'lumotlar maydonining ishga tushirilishi butun Yevropa bo'ylab davlat xaridlari shaffofligi va samaradorligini oshirish yo'lidagi muhim qadam bo'lganligi ta'kidlanmoqda. O'zbekistonda elektron davlat xaridlari rivojini xarid.uzex bergan statistika bo'yicha ko'rsak bo'ladi. Tadqiqot doirasida o'rganilgan 2024–2025 yillarga oid ma'lumotlarga ko'ra, elektron xaridlar platformalarida auksion miqdori mos ravishda 1trln 167 mlrd 42 mln so'm hamda 1 trln 164 mld 54 mln(hozirgi ayni vaqtda va bu summa yil oxirigacha 1,5 trln ga yetishi kutilmoqda) ni tashkil etmoqda<sup>8</sup>. Shuningdek, g'olibni aniqlash va shartnoma tuzish jarayoni o'rtacha 20% tezlashgani qayd etildi. Bu jarayonlarning avtomatlashtirilishi inson omilini kamaytirib, jarayonlarni tez va samarali amalga oshirishga hamda davlat byudjetidan mablag'larning ortiqcha sarfini kamaytirishga imkon yaratgan.

Shuningdek, jamoatchilik nazorati va ochiq ma'lumotlar portalining integratsiyasi natijasida tender jarayonlariga e'tirozlar va shikoyatlar soni sezilarli darajada kamaygan. Masalan, 2021 yilda tenderlarga oid shikoyatlar soni 320 ta bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda ular 190 taga tushgan. Bu ko'rsatkich shaffoflik va ishonchlilikning oshganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, elektron xarid tizimlarida ishtirok etuvchi kompaniyalar soni ortib, raqobat muhiti kengaygan, bu esa narxlar va xarid shartlarining adolatli shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, elektron xaridlar jarayonida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsion xavflarning kamayishi natijalari aniqlangan. Tizimning avtomatlashtirilgan strukturasi har bir harakatlar raqamli iz qoldirgani bois audit va nazorat jarayonlarini ancha osonlashgan. Natijada elektron xaridlar platformalari davlat organlarining ochiqligi va hisobdorligini mustahkamlamoqda.

### **Xulosa**

<sup>8</sup> <https://xarid.uzex.uz/home>

Ushbu tadqiqot natijalari elektron davlat xaridlarining davlat boshqaruvidagi muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, elektron xaridlar tizimi axborot shaffofligini yaratadi, korrupsion xavflarni kamaytiradi va byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Avtomatlashtirilgan jarayonlar inson omilini minimallashtiradi, tenderlarni tezlashtiradi va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Shu bilan birga, tizim davlat organlarining hisobdorligini mustahkamlaydi va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiradi.

O'zbekiston tajribasi xalqaro standartlar bilan solishtirilganda, asosiy talablar va samaradorlik mezonlariga javob beradi. Biroq tizimni yanada takomillashtirish uchun sun'iy intellekt asosidagi baholash mexanizmlari, real vaqt rejimidagi monitoring va huquqiy bazani yanada mustahkamlash zarur. Elektron davlat xaridlari nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki davlat boshqaruvida institutsional islohotlarni amalga oshirish vositasi sifatida ham ahamiyatga ega.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yevropa Ittifoqi – Umumiy bozor va xaridlar bo'yicha rasmiy portal
2. Single Market – Public Procurement
3. [https://single-market-economy.ec.europa.eu/single-market/public-procurement\\_en](https://single-market-economy.ec.europa.eu/single-market/public-procurement_en)
4. CIPS – Elektron xaridlar va ta'minot zanjiri haqida ma'lumot portali
5. CIPS Intelligence Hub – E-Procurement
6. <https://www.cips.org/intelligence-hub/procurement/e-procurement>
7. 3.O'zbekiston Respublikasi Qonuni
8. "Elektron xaridlar to'g'risida" Qonuni – 2021-yil, 22-aprel, O'RQ-684-son
9. 4.Yevropa Ittifoqi – Raqamli infratuzilma bloki
10. Digital Building Blocks – e-Invoicing ekologiyasi
11. <https://ec.europa.eu/digital-building-blocks/sites/pages/viewpage.action?pageId=894304528#:~:text=Since%2018%20April%202020%2C%20federal,businesses%20starting%20January%201%2C%202025>
12. 5.ESPD (European Single Procurement Document)
13. <https://www.espd.eu>
14. 6.Open Contracting – Hamma uchun ochiq davlat xaridlari
15. <https://www.open-contracting.org/2017/12/07/government-procurement-electronic-open/>
16. 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni
17. 2023-yil, 11-sentabr, PF-158-son
18. O'zbekiston Respublikasida Elektron Xaridlar Portali
19. XARID.UZEX – Rasmiy elektron xaridlar platformasi
20. <https://xarid.uzex/home>